

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI
SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**Surxondaryo
viloyatida
kichik tadbirkorlik**




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **27,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3,0** mingtaga ko'paygan yoki **12,2 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar-dekabrda **4,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,1 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga, faoliyat yuritayotganlar soni jami **27 368** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 083** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **5 148** tani yoki jamiga nisbatan **18,8 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati


Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **12,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,8** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkichi Termiz tumanida **27,0** birlik, Termiz shahrida **26,3** birlik, Qiziriq tumanida **14,5** birlik, Boysun tumanida **13,9** birlik va Sherobod tumanida **13,1** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- y.		2022- y.
236	Angor	226
159	Bandixon	150
215	Boysun	225
574	Denov	467
400	Jarqo'rg'on	316
223	Muzrabot	205
124	Oltinsoy	184
206	Qiziriq	160
325	Qumqo'rg'on	270
248	Sariosiyo	219
379	Sherobod	352
367	Sho'rchi	260
269	Termiz	189
1 066	Termiz sh.	677



2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - **16,6 %**, Denov tumani - **11,5 %**, Sherobod tumani - **8,6 %**, Jarqo'rg'on tumani - **7,7 %**, Qumqo'rg'on tumani - **6,6 %**, Sho'rchi tumani - **6,4 %**, Angor tumani - **5,5 %**, hissalari to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*




2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 479** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **820** ta, sanoatda **678** ta hamda qurilishda **310** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022- yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022- yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2018-2022- yillar davomida jami **24 301** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **7 928** (yoki **32,6 %**) ta, xizmatlar sohasida - **4 181** ta (yoki **17,2 %**), sanoat sohasida - **5 132** ta (yoki **21,1 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **5 017** ta (yoki **20,6 %**) va qurilish sohasida - **2 043** ta (yoki **8,4 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘nggi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	247	6,0
Parrandachilik	301	7,3
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	649	15,8
Sabzavotlar yetishtirish	629	15,3
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	118	2,9
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	311	8,6
Qurilish metall konstruksiyalari va buyumlari ishlab chiqarish	51	1,4
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	95	2,6
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	57	1,6
Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	112	3,1
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	179	17,0
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	337	32,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	42	4,0
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	40	3,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	62	5,9
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	467	8,7
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	169	3,2
Ixtisoslashgan do‘konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	172	3,2
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	312	5,8
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	57	1,1
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	225	8,9
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo‘yicha xizmatlar	204	8,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	101	4,0
Avtomobil transportida yuk tashish	128	5,0
Ta‘lim sohasidagi yordamchi faoliyat	88	3,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'nggi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **467 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **8,7 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'nggi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022- yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **76,8 %** ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **0,5** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **97,2 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **88,6 %** ni, yo'lovchi tashishda **98,3 %** ni, savdoda **92,1 %** ni, qurilishda **92,2 %** ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 128,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**495,3** mlrd. so'm), Denov (**373,5** mlrd. so'm), Sho'rchi (**331,4** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**276,7** mlrd. so'm) va Muzrabot (**240,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qiziriq tumanida (**65,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **42,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Boysun tumani (**94,2 %**), Oltinsoy tumani (**92,8 %**), Angor tumani (**91,6 %**), Denov tumani (**91,4 %**), Muzrabot tumani (**89,7 %**), Qumqo'rg'on tumani (**43,4 %**), Termiz tumani (**42,3 %**), Uzun (**42,3 %**) va Sho'rchi (**40,6 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 033,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**1 794,0** mlrd. so'm), Denov (**579,8** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**470,0** mlrd. so'm), Boysun (**424,4** mlrd. so'm), Sariosiyo (**393,2** mlrd. so'm), Termiz (**367,1** mlrd. so'm) hamda Sherobod (**339,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **5 708,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **49,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **90,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Denov tumani (**701,9** mlrd. so'm), Termiz shahri (**695,9** mlrd. so'm), Termiz (**612,7** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**489,0** mlrd. so'm), Angor (**487,3** mlrd. so'm), Boysun (**473,6** mlrd. so'm) hamda Sariosiyo (**380,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022 - yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi — ulush

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **27 239,3** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **97,2 %** ini tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2021- yilga nisbatan **104,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**4 344,2** mlrd. so‘m), Sherobod (**3 295,4** mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**2 810,7** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**2 454,3** mlrd. so‘m), Muzrabot (**2 045,1** mlrd. so‘m) hamda Sariosiyo (**1 873,5** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati


2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **17 867,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,1 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **110,6 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm



2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**4 303,3** mlrd. so'm), Termiz shahar (**3 181,2** mlrd. so'm), Sho'rchi (**1688,2** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**1 025,5** mlrd. so'm), Sherobod (**996,4** mlrd. so'm) va Angor (**838,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8417,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,4 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (1656,0 mlrd. so'm), Denov (1039,0 mlrd. so'm), Sariosiyo (546,0 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (540,4 mlrd. so'm), Sherobod (528,2 mlrd. so'm), Sho'rchi (510,4 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (507,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.





Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, % da




2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **145 641,5** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **64,0 %** ini tashkil etdi.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida - **100,0 %**, Denov tumanida - **99,4 %**, Angor tumanida - **96,5 %**, Muzrabot tumanida **73,2 %** va Qumqo'rg'on tumanida - **70,0 %**, eng past ko'rsatkich Jarqo'rg'on tumanida - **10,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **105 449,7** ming AQSH dollarini yoki jami importning **72,6 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Bandixon tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida - **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Denov tumanida - **99,8 %** ni tashkil etdi.

Qiziriq 100,0

Boysun 100,0

Bandixon 100,0

Oltinsoy 100,0

Qumqo'rg'on 100,0

Denov 99,8

Uzun 98,6

Termiz sh. 96,7

Muzrabot 88,4

Angor 83,5

Termiz 78,7


Sho'rchi 74,5

Jarqo'rg'on 66,2

Sherobod 63,0


Sariosiyo 16,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,4 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **95,6 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,3 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,6 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,5 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 079** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **293 (27,2 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **698 (64,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **88 (8,1%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - **42,9 % (463 ta)**, xizmatlar sohasida - **24,8 % (268 ta)**, sanoatda - **13,1 % (141 ta)**, qurilishda - **12,5 % (135 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **6,7 % (72 ta)**ni tashkil etdi.

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (191 ta), Denov (134 ta), Jarqo'rg'on (84 ta), Qumqo'rg'on (73 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi Qurilishda - **40,0 %** ni, xizmatlar sohasida - **32,8 %** ni va savdoda - **23,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda - **70,0 %** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **68,1 %** ni, sanoatda - **66,7 %** va xizmatlar sohasida - **61,2 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **15,2 %** ni, sanoatda - **11,3 %** ni, qurilishda - **10,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **50,4 %** ni, xizmatlar sohasida - **37,7 %** va savdoda - **32,8 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda - **62,2 %** ni, sanoatda - **61,0 %** va xizmatlar sohasida - **59,3 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **9,7 %** ni, sanoatda - **7,1 %** ni, qurilishda - **6,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	45,8	43,6	10,7
Band bo'lganlar soni	25,1	68,0	7,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,1	55,2	5,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,1	62,8	7,1
Raqobat muhiti	41,1	54,2	4,7

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,3	45,8	4,9
Band bo'lganlar soni	28,7	67,5	3,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,3	57,6	4,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,9	62,1	5,0
Raqobat muhiti	41,9	54,4	3,6


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Tel.: +998 (76) 225-65-68